

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV KORREKSION TA'LIM TIZIMI

**Amirova Mavluda Erkinovna**

Termiz Davlat Pedagogika Inistituti, maktabgacha ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqola Inklyuziv-korreksion ta'lim tushunchasi va O'zbekistonda Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida inklyuziv-korreksion ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi, bugungi kunda sohani rivojlantirishda chiqarilayotgan qonun va qarorlar va ularning amaliy ahamiyatiga bag'ishlanadi.*

***Kalit so'zlar:** Inklyuziv-korreksion, Maktabgacha ta'lim va tarbiya, STEAM, Jismoniy integrasiya, Funksional integrasiya, Uchinchi Renessans, L.S. Vigotskiy.*

### KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevar qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish bilan amalga oshiriladi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning “Maktabgacha ta'lim va tarbiya” tizimida bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, Jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga – Uchinchi Renessans davriga qadam qo'yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda ta'lim va tarbiyani chuqur o'rganish va ommalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil. 31-avgust.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli qarori<sup>1</sup>, “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3651-sonli qarori<sup>2</sup>, “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli qarorlari bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me‘yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolar ta’lim-tarbiyasini ham qamrab olgan.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonun (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son) ning 52-moddasida Davlat ijtimoiy himoya qilishni ta’minlash maqsadida kam ta’minlangan oilalardagi bolalar, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun, shuningdek mazkur toifadagi ta’lim oluvchilarning kasbiy o‘sishi uchun shart-sharoitlar yaratganligini ko‘rishimiz mumkin. Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim olishini ta’minlamoqda<sup>3</sup>. Keltirib o‘tilgan shu kabi normativ-huquqiy hujjatlar maqolaning bugungi kunda dolzarbligiga xizmat qiladi.

## USULLAR

Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar-xolislik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida inkulyuziv korreksion ta’lim tizimi normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar asosida yoritib beriladi.

## NATIJALAR

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli qarori.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3651-sonli qarori.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonun (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son).

Inklyuziv ta'lim bu – davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir<sup>1</sup>.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng xuquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini taminlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir.

Inklyuziv ta'limning maqsadi – alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Maktabning inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarning birinchi sinfiga o'quvchilar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);

nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidadagi sustlik, duduqlanish);

---

<sup>1</sup> «Inklyuziv ta'lim» muvaqqat Nizomi. 2005-yil.

tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi – pakanalik);

aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;

aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji);

intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;

hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda).

Maktabda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar hududdagi aholi ehtiyoji va ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar taklifi bilan viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari buyrug'iga ko'ra tashkil etiladi.

O'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish hududiy xalq ta'limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya (keyingi o'rinlarda – psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya) xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. «Inklyuziv» va «integrasiyalashgan» atamalari ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> “Дакарскийе рамки действий”- ЮНЕСКО-2000-йил. Францияда chop etilgan. Кислитсина И.К. «Инклюзивной образованийе-образованийе для всех»(основные понятия и краткий обзор международного опыта) создано при поддержке Европейского Союза. Ташкент, 2004.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integrasiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Integrasiyalashgan ta'lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Integrasiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi.

Bu ta'lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

A) Jismoniy integrasiya.

Integrasiyaning bu shakli nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

B) Funksional integrasiya.

Bu shakl nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

V) Ijtimoiy integrasiya.

Itegrasiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab – quvvatlaydi.

G) Jamiyatga integrasiya qilish kabilar.

Integrasilashgan talim tizimining bir qator quyidagicha chegaralangan tomonlari mavjud.

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutiladi:

1) maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

2) maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o'tkazish;

3) maktabgacha ta'limning muqobil shakllari uchun yangi o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

4) "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini keng joriy etish;

5) tarbiyalanuvchilarning yakka tartibdagi ish daftarlari, kartochkalar, tarqatma va sanoq materiallari mazmuni va dizaynini o'rnatilgan talablarga muvofiq ishlab chiqish;

6) rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalar ta'limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta'lim, eng yangi reabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va umumiy maktabgacha ta'lim umumiy tizimi integratsiyalashuviga ko'maklashadigan moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish;

7) maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish;

8) mashg'ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma-ketligini aniqlash maqsadida o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini optimallashtirish;

9) bolalarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sportga qiziqish uyg'otishni shakllantirish, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash;

10) maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish;

11) bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish;

12) maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnamaydigan bolalar uchun ta'lim xizmatlari turlari: pullik ta'lim xizmatlari, qisqa muddatli guruhlar va boshqalarni kengaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda nafaqat bizning yurtimizda balki, butu dunyo mamlakatlarida jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion darslarini olib borish insonparvarlik g'oyalari amaliyotda o'z natijalarini bermoqda. Yurtimizda barcha toifadagi insonlarga qulay shart-sharoit yaratib berish negizida davlatimizning inson va uning qadri va qimmatini eng oliy qadriyat deb ataluvchi g'oyani qamrab olganligini ko'rishimiz mumkin.

### **MUNOZARA**

O'zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog'liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan. Hozirgi kunda O'zbekistonda 270000 ga yaqin turli ko'rinishdagi nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta'lim olish ehtiyojiga ega.

Nogiron bolalar uchun ta'lim bilan birgalikda maxsus xizmatlar tashkil etish lozim. Ko'zi ojizlar, kar va eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar, poliyemiyelit bilan kasallanganlar, aqli zaif bolalar, nutqida nuqsoni bor va soqov bolalarga mo'ljallangan 86 ta maxsus ta'lim va aralash maxsus muassasalar, 982 ta maxsus bolalar bog'chalari mavjud.

O'zbekistonda maxsus ta'lim sohasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- yordamga muhtoj bolalar uchun moslashuvchan va ko'p qirrali ta'lim tizimini yaratish;
- mahalliy va mintaqaviy miqyosda maxsus ta'limning tobora oshib borayotgan ahamiyati asosida ta'lim boshqaruvini markazlashtirish;
- yordamga muhtoj bolalarga yoshlikdan toshhis qo'yish va kasalpiklarni aniqlash uchun sharoit yaratish;
- milliy ta'lim standartlari asosida yordamga muhtoj bolalarga mo'ljallangan o'quv qo'llanmalar sifatini yaxshilash;
- ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bozasini mustahkamlash;

- nogiron bolalar bilan ishlashga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish;
- ko‘zi ojiz bolalar uchun mo‘ljallangan turli kitoblar, metodologik adabiyotlarni chop etish;
- nogiron bolalarni maxsus aravachalar, eshitish moslamalari, ko‘zoynaklar, sport anjomlari, ish asbob-uskunalar, kanselyariya mollari, maxsus mebellar va tibbiy uskunalar bilan ta’minlash;
- maxsus talim sohasida kadrlar tayyorlash.

Har bir bola o‘z imkoniyat darajasida rivojlanadi, buni L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko‘ra “Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi” fikri bilan ham tasdiqlash mumkin<sup>1</sup>.

Ma’lumki, Inklyuziv ta’lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta’lim tizimiga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o‘quv rejalari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog‘liq tomonlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yiladi. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o‘zlari xohlagan maktabda o‘qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi.

Bolaning nogiron bo‘lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo‘l qo‘yilgan xatolar sababchi bo‘lgan. Demak, uning o‘qishi uchun ham shu jamiyatning o‘zi jon kuydirishi shart.

Bola huquqlari xalqaro Konvensiyadan kelib chiqib, yaxshi maktab ta’limini uch xil ibora bilan ta’riflash mumkin, ya’ni:

- mos keluvchi;
- rivojlantiruvchi;
- inklyuziv;

---

<sup>1</sup> Khimmataliev, D. O., Olmov, K. T., Abdullaeva, R. M., Ergashev, B. B., & Chulponova, K. T. (2021). Mechanisms of professional competence development in future teachers based on pedagogical and technical knowledge. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2950-2958.



Konvensiyaning 6-moddasida shunday satrlar bor: “Tirik qolish va rivojlanish”. Bu modda mos keluvchi ta’limga taalluqli. Rivojlantiruvchi ta’lim 29-moddada ko’rsatilgan: “Ta’lim shaxsning yuqori darajada rivojlanishiga, iqtidorli, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o’stirishga yo’naltirilgan bo’lishi, bolani erkin jamiyatda faol yashashga tayyorlash kerak”. 2-va 28-moddalar inklyuziv ta’limga tegishli bo’lib, ularda kamsitishning olsini olish, ta’lim hamma uchun qobiliyatiga yarasha ekanligi belgilab qo’yilgan. Maxsus ehtiyojli bolalar, boshqa bolalar, o’qituvchi va tarbiyachilar faoliyati inklyuziv ta’limda o’ziga xos o’rin tutadi.

Bunday ta’lim tufayli maxsus ehtiyojli bolalar:

- jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar;
- ijtimoiy xulq va o’ziga-o’zi xizmat ko’rsatish malakalarini yaratadilar;
- ularning imkoniyatlarini hisobga olgan o’quv materiallarini o’zlashtiradilar;
- tengqurlari bilan turli o’yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar;
- jismoniy tarbiya darslarida shaxmat-shashka o’yinlari, turli sport musobaqalarida vaqtni kuzatuvchi hakam yoki darvozabon bo’lishlari mumkin;
- do’stona muhitda do’st orttiradilar;

Xulosa o’rnida O’zbekistonda Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimida inklyuziv-korreksion ta’lim va bolalar ta’lim muassasalarining asosiy tayanch punktlarini tuzish YuNESKO bilan hamkorlikda asosiy loyihasi hisoblanadi<sup>1</sup>. Bu dasturni rivojlantirish maqsadida Farg’ona, Xorazm, Namangan, Surxondaryo, Andijon viloyatlarida inklyuziv ta’lim yo’nalishida Resurs Markazi tashkil etildi<sup>2</sup>.

Bu markazlar yordamga muhtoj bolalarni o’qitish, rivojlantirish va ularning reabilitasiya qilish bilan shug’ullanadi hamda inklyuziv yo’nalishdagi ta’limni davlat tashkilotlari va jamoatchilik bilan bo’lgan munosabatlar orqali rivojlantiradi.

Mana shu kabi markazlar respublikamizning barcha viloyatlarida faoliyat yuritisa ta’lim sifati yanada oshgan bo’lardi.

Misol sifatida bir nogiron bolani keltirmoqchiman:

<sup>1</sup> YUNESKOning 2003-yil O’zbekistonda 2-4 oktabr kunlaridagi «Inklyuziv ta’lim» ga oid seminarii hujjatlari.

<sup>2</sup> Roy Mark Konki ”Inklyuziv sinflarda o’quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish” Toshkent-YuNESKO-2004-yil.

«Men o‘ylaymanki, haqiqiy hayotni bilish uchun insonning do‘stlari bo‘lishi kerak. Chunki haqiqiy hayot bu atrofdagi insonlar bilan doimiy bog‘lanish va muloqotda bo‘lishdir. Men, menga yordam berayotgan insonlarsiz hech narsa qila olmayman. Agar men faqatgina ular bilan muloqotda bo‘lishni istamasam, unda do‘stlar orttirish yo‘llarini axtarishim, izlashim lozim».

Olib borilgan kuzatishlar asosida biz quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta‘lim sharoitida o‘qitishni tashkillashtirish;
2. Inklyuziv ta‘limni rivojlantirish uchun umumiy ta‘lim tizimiga tarkibiy o‘zgartirishlar kiritish;
3. Inklyuziv ta‘limni joriy qilishda muassasa hodimlarini ish vazifalarida islohotlarni amalga oshirish;
4. O‘qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashni yo‘lga qo‘yish;
5. Imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra yakka tartibda korreksion metod va moslashtirilgan o‘quv reja, dasturlar va boshqa omillardan foydalanib, atrofdagi jamoatchilik bilan birgalikda o‘qitishning turli shakllarini tashkil qilish;
6. Bolalar uchun ta‘lim sharoitini yaratish va ta‘lim samaradorligini oshirish;
7. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta‘lim–tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga mos bo‘lgan siyosatni ishlab chiqish;
8. Barcha yoshdagi bolalar atrofida yashayotgan va ishlayotgan bolalar bilan bir xil sharoitda o‘qishlari va kamol topishlari zarur;
9. Sinfidagi o‘quvchilar soni muammosini hal qilish;
10. Ota-onalar uchun nogiron bolalarni o‘qitish tizimi, inklyuziv ta‘lim tizimi haqidagi o‘quv qo‘llanmalar yaratish<sup>1</sup>.

Inson dunyoga kelar ekan albatta u bu dunyoda o‘zini borligini his qilib yashamog‘i va jamiyat bilan doimiy ijtimoiy birligini saqlamog‘i kerak.

Har bir inson oilalarimizda baxtli va to‘kis hayot kechira olsa, jamiyat va davlat farovon bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi, 12.10.2021 yildagi 638-son qarori.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil. 31-avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3651-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonun (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son).
5. “Дакарскийе рамки действий”- ЮНЕСКО-2000-йил. Францияда чоп этилган. Кислитсина И.К. «Инклюзивнойе образованийе-образованийе для вцех»(основнойе понятия и краткий обзор международного опыта) создано при поддержке Европейского Союза. Ташкент, 2004.
6. «Inklyuziv ta’lim» muvaqqat Nizomi. 2005-yil.
7. Khimmataliev, D. O., Olmov, K. T., Abdullaeva, R. M., Ergashev, B. B., & Chulponova, K. T. (2021). Mechanisms of professional competence development in future teachers based on pedagogical and technical knowledge. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2950-2958.
8. YUNESKOning 2003-yil O‘zbekistonda 2-4 oktabr kunlaridagi «Inklyuziv ta’lim» ga oid seminarii hujjatlari.
9. Roy Mark Konki ”Inklyuziv sinflarda o‘quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish” Toshkent-YuNESKO-2004-yil.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi, 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori.

11. Rashidovna, H. M. (2023). TEMURIY MALIKALARNING HAYOTI VA FAOLIYATIGA TARIXIY NAZAR. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 763-772.